

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son qarorining 6-ilovasiga asosan
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan budget xarajatlarining maqsadli
indikatorlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2026-yil II-chorak ijrosi to‘g‘risida**

HISOBOT

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O‘lchov birligi	2026-yil uchun jami	01.07.2026 holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi	mlrd.so‘m	13,543	5,006	8,537	37,0%	Qo‘mita markaziy apparati va Qo‘mita huzuridagi Markazda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hisobiga olti oylikda yillik reja 37, 0 foizga bajarilgan.
Strategik maqsad: Tadbirkorlar va iste’molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta’minlash va raqobat cheklanishining oldini olish							
<u>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</u>							
1.	Raqobat holati to‘liq tahlil qilinadigan tovar, moliya va raqamli bozorlar soni.	dona	30	17	-13	56,6%	Qo‘mita tomonidan 2026-yilning 6 oyi davomida 115 ta tovar va xizmatlar bozorlari tahlil qilindi. Shundan, 17 ta bozorlar to‘liq (2-chorak rejasi 14 ta), 25 ta tovar va ish xizmatlarning bozorlarda muqobillari mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan va 73 ta mahsulot bilan to‘yinganligi bo‘yicha ekspress tahlillar o‘tkazildi. Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan choraklik rejaga asosan ijro 100 foizga bajarildi . Yil yakuniga qadar qolgan 13 ta bozorlar to‘liq tahlil qilinishiga erishiladi .
2.	Ex-ante usulida raqobatga ta’siri baholanadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari soni.	dona	550	425	-125	77,2%	Qo‘mita tomonidan 2026-yilning 6 oyi davomida Davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan loyiha.adliya.uz (project.gov.uz) portali orqali kelib tushgan 425 ta (2-chorak rejasi 240 ta) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini (ex-ante usulida) raqobat muhitiga ta’siri baholandi. Shundan, 245 ta (57,6%) loyihalarga raqobatga ta’siri jihatidan taklif va e’tirozlar (xulosalar) berildi.
<u>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</u>							
3.	Ko‘rib chiqilgan iste’molchilar murojaatlari soni.	dona	32 000	27 112	-4 888	84,7 %	Qo‘mitaga 2026-yilning 6 oyi davomida iste’molchilar tomonidan 28953 ta murojaatlar kelib tushgan. Shundan, 14 513 ta (50,1%) uy-joy kommunal va transport sohasi, 7 770 ta (26,8%) savdo va umumiy ovqatlanish sohasi, 5 946 ta (20,5%)

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2026-yil uchun jami	01.07.2026 holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
							foizi aloqa va ijtimoiy xizmatlar sohasi, 724 ta (2,6%) reklama va boshqa sohalarga to'g'ri keladi. Qo'mita tomonidan joriy yilning 6 oyi davomida yuqoridagi iste'molchilardan kelib tushgan murojaatlarning 27 112 tasi (2-chorak rejasi 14 500 ta) ko'rib chiqildi (19 505 tasi qanoatlantirish orqali, 4 484 tasi huquqiy ma'lumot berish orqali, 2 379 tasi tushuntirish berish orqali hamda 744 tasi 25-modda bilan tegishli idoralarga yuborish orqali hal etildi) va 2-chorak rejaga nisbatan 187,0 foizga bajarildi.
4.	Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan monitoringlar soni.	dona	39 000	18 762	-20 238	48,1%	Qo'mita tomonidan Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib, tarqatilayotgan (joylashtirilgan) ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messengerida tashkil qilingan guruh va kanallarda, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiylarida) reklamalarni joylashtirilishi va tarqatilishi bo'yicha jami 18 762 ta (2-chorak rejasi 18 750 ta) o'rganishlar o'tkazilgan. Shundan, 16 790 tasi tashqi reklama axborot obyektlari (konstruksiylari) hamda 1 652 tasi ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messengerlarida tashkil qilingan guruh va kanallarga to'g'ri keladi.